



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyunda Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinnarda -YAHM) hajmi joriy narxlar 83267,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-iyun bilan taqqoslaganda 7,9 % ga o'sdi.

**Yanvar-iyun oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM ishlab chiqarish**


	mlrd. so'm		2022-yil yanvar-iyunga nisbatan foiz hisobida
	2022-yil	2023-yil	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	69 405,0	83 267,0	107,9

shu jumladan:

Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 144,2	75 337,8	107,7
Mahsulotlarga sof soliqlar	7 260,8	7 929,2	109,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 144,2	75 337,8	107,7
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	26 200,8	29 351,4	103,5
Sanoat	20 066,8	22 412,8	104,5
Qurilish	6 134,0	6 938,6	100,1
Xizmatlar	35 943,4	45 986,4	110,8
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 838,8	12 864,6	112,7
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	8 331,8	11 028,5	119,6
Boshqa xizmat tarmoqlari	17 772,8	22 093,3	105,5




**YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
(2023- yil yanvar-iyun oylarida)**



Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 104,5 % ni tashkil etib (YAHM tarkibidagi ulushi 29,7 %), qurilish – 100,1 % (9,2 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 112,7 % (17,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 119,6 % (14,6 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 105,5 % (29,4 %) ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**







2023-yil yanvar-iyun oylari davomida Toshkent shahri bo'yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 17,1 % ni (2022- yil yanvar-iyunda 15,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 14,6 % ni (13,4 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 29,4 % ni (28,64 %) tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, (jamiga nisbatan foizda)

2022 -yil yanvar-iyun



2023-yil yanvar-iyun



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy yalpi hududiy mahsulotning 90,5 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,5 % ni tashkil etdi.



Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'i yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 38,9 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 61,1 % ni tashkil etdi.

2023-yil yanvar-iyun oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 27 960,7 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 % ga o'sgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallahishi oqibatida YAHMda kichik biznesning ulushi 48,5 % ni tashkil qildi.


Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-iyun oylari, jamiga nisbatan ulushi)



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 17,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 punktga o'sgan.

Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, foizda



■ O'zbekiston Respublikasi ■ Toshkent shahri



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

Yalpi hududiy mahsulot- milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlari bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institusional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajminimamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat - ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligacha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar- tovar yoki xizmatlarning bir birligiga, yani rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun sof soliqlar- mahsulotlar uchun soliqlar mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar- davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlardida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxdagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot) davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.